
«MUSTAQILLIK OQSHOMLARI» BAYRAM TADBIRLARI O‘TKAZILMOQDA

“Yangi O‘zbekistonda el aziz, inson aziz” shiori ostida Mustaqilligimizning 31 yilligiga bag‘ishlangan bayram tadbiri tumandagi Qanjirg‘a MFY hududida bo‘lib o‘tdi.

Tadbir doirasida qiziqarli savol-javoblar, QVZ hamda yoshlar o‘rtasida shaxmat-shashka, stol tennisi bo‘yicha musobaqalar o‘tkazildi. Mahalla xotin-qizlari o‘rtasida qiziqarli savol-javob va qiziqarli o‘yinlar bo‘lib o‘tdi.

Bayram tadbiri yakunida g‘oliblar tashkilotchilarning esdalik sovg‘alari bilan taqdirlandi.

2022-08-28 13:14:58